

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLYI TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



**O‘ZBEKISTON DAVLATCHILIGI TARIXI
O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	200 000 – San’at va gumanitar fanlar
Ta’lim sohasi:	220 000 – Gumanitar fanlar (tillardan tashqari)
Ta’lim yo‘nalishi:	60220300 – Tarix

Chirchiq – 2024

Fan/modul kodi DT 1604		O'quv yili 2026-2027	Semestr 6	ECTS - Kreditlar 5	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	O'zbekiston davlatchiligi tarixi		60	90	150
2.	I. Fanning mazmuni “O‘zbek davlatchiligi tarixi” fanining maqsadi O‘zbekiston hududlarida davlatchilikning shakllanishidan boshlab bugungi kungacha o‘tgan davr mobaynida davlatchilikning sohasida yuz bergan taraqqiyot jarayonlari, siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar va ularning xususiyatlari hamda o‘zbek davlatchiligining rivojlanishi bosqichlari masalalarini o‘z ichiga olgan. “O‘zbek davlatchiligi tarixi” fanining ta’limdagi o‘rni talabalarning O‘zbekiston tarixining turli davrlariga oid o‘zlashtirilgan bilim va malakalariga asoslangan holda davlatchilik va lining kelib chiqishi, vazifalari va funksiyalari, davlatchilik asoslari va uning taraqqiyot jarayonlari, davlatchilik bosqichlari va ularning xususiyatlari, boshqaruv shakllari va ularning asosiy jihatlari haqida tushuncha hosil qilish hamda yetarli ma’lumotga ega bo‘lish bilan belgilanadi. “O‘zbek davlatchiligi tarixi” fanini o‘qitishda O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlat qurish jarayonida o‘tmishning tarixiy tajribasi, o‘zbek xalqimng qadimiy davlatchilik ananalari o‘rni beqiyos. Shundan kelib chiqib, o‘zbek davlatchiligi tarixini holisona, haqqoniy, tarixiylik an’analari va tarixiy dalillar asosida manbalarga suyangan holda chiqarilgan ilmiy xulosalar asosida yoritib berish mazkur fanning asosiy maqsadi etib belgilangan. Fanning vazifalari sifatida O‘zbekiston hududlaridagi dastlabki davlatlar va davlat uyushmalarining o‘zaro va qo‘shni hududiy siyosiy birlashmalar va davlatlar bilan barcha sohadagi aloqalari, ularning tarixiy geografik hududlari va chegaralari haqidagi masalalarning ham bugungi tarix fanida o‘zining mukammal ilmiy xulosalariga ega bo‘lishi, bunda qadimgi va o‘rta asrlarga xos tarixiy va geografik manbalarning o‘rganilishi kabilar belgilangan. O‘zbek davlatchiligi tarixi fanining yana bir muhim vazifasi O‘zbekistonda ilk shahar madaniyatining shakllanishi va eng qadimgi davlatchilikning kelib chiqishida azaliy o‘troq aholining madaniyati hal etuvchi omil bo‘lganligini ko‘rsatib berish. O‘zbek davlatchiligi taraqqiyoti jarayonida hukm surgan davlatlar va ulardagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarni chuqur va izchil tadqiq qilishidan iborat. O‘zbek davlatchiligi tarixi fani tarix fanining tarkibiy qismi bo‘lib, talabalar bu fanni o‘qish va o‘zlashtirish jarayonida “O‘zbekiston tarixi”, jahon tarixining barcha davrlari, “Tarixshunoslik”, “Etnologiya”, “Yordamchi tarix fanlari”, “Arxeologiya”,				

“Numizmatika”, “Tarixiy o‘lkashunoslik”, “Muzeyshunoslik” kabi fanlardan olgan bilimlariga suyanishlari ko‘zda tutilgan.

II. Nazariy qism (ma‘ruza mashg‘ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu: O‘zbek davlatchiligi tarixi fani predmeti, maqsad va vazifasi.

Davlat tushunchasi va uning xususiyatlari, vazifalari, insoniyat tarixida davlatning tutgan o‘rni haqidagi tushunchalarni berish bilan birga Vatan tushunchasi va vatanpararlik hissi hamda tuyg‘usini tarbiyalashga katta ahamiyat berish lozim. Bunda o‘zbek xalqi va davlatchiligi tarixiga oid ko‘plab moddiy va yozma manbalar, ilmiy va tarixiy tadqiqotlarni holisona, haqqoniylik tamoyili asosida o‘rganish muhim o‘rin tutadi. O‘zbek xalqi va davlatchiligi tarixi fanini o‘rganishda manbalar va ularning ahamiyati beqiyosdir.

2-mavzu. Davlatchilik nazariyalari va davlatlar shakllanish asoslari

Ilk davlatlar rivojlanishining davrlashtirilishi, boshqaruv tizimi va ilk davlatlar paydo bo‘lishining ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy asoslari, davlatchilik kelib chiqishiga doir nazariyalar, davlat shakllari va boshqaruv tizimi.

3-mavzu: O‘zbek davlatchiligining shakllanishi va ilk davlatchilik tarixi.

Qadimgi Baqtriya, Xorazm va Sug‘diyona davlatlari.

Tosh davrining eng qadimgi bosqichlaridayoq O‘zbekiston tuprog‘ida odamlarning o‘rnasha boshlashi. Eng kadimgi odamlarning yashash tarzi va O‘zbekiston hududlari bo‘ylab yoyilish jarayoni. O‘rta tosh davri odamlarning turmush tarzi va qurollarning takomillashib borishi. Iqlimning o‘zgarishi va inson hayotida yuz bergan o‘zgarishlar. Teshiktosh makoni. Zamonaviy qiyofadagi odamlarning shakllanishi. Ijtimoiy va madaniy hayotdagi o‘zgarishlar, jamiyatda juft oilalarning shakllanishi. Mezolit va neolit davrlari kashfiyotlari va yutuqlari. Ishlab chiqaruvchi xo‘jalikka o‘tilishining insoniyat hayotidagi o‘rni va ahamiyati. Madaniy va iqtisodiy o‘zgarishlar. Bronza davrida ishlab chiqarish munosabatlarining tez rivojlanishi va ijtimoiy iqtisodiy jarayonlarning yangicha taraqqiy etishi. Bronza davrida O‘rta Osiyo, jumladan O‘zbekiston hududlarida turli qiyofali odamlarning joylashishi va O‘rta Osiyo hududlarida turli elatlarning shakllanishi. O‘zbekiston hududlarida ilk davlatchilikka o‘tish jarayonlarining boshlanishi.

Jahon tarixida ilk davlatchilik yuzaga kelgan hududlar va ularning xususiyatlari. O‘zbekistonda ilk davlatlarning shakllanishi haqida arxeologik manbalarning ma‘lumotlari. Dastlabki davlatlarning joylashuv xususiyatlari va o‘ziga xos belgilari. Qabilalarda jamoa munosabatlaridagi o‘zgarishlar va ijtimoiy munosabatlarning

takomillashib borishi.

O'zbekistonda dastlabki davlat uyushmalarining tashkil topishidagi ijtimoiy va iqtisodiy hamda siyosiy shart-sharoitlar. O'zbek davlatchiligi tarixiga oid yozma manbalar - "Avesto", Ahamoniylar davri yozuvlari (Behistun va Naqshi Rostam qoyatosh yozuvlari, Suza, Persepol, Xamadon shaharlaridan topib o'rganilgan yozuvlar va lavhalar), antik dunyo mualliflari Gekatey, Ktesiy, Geradot va boshqalarda o'zbek davlatchiligi tarixi, iqtisodiy-ijtimoiy haqidagi ma'lumotlar. O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan Aryoshayyona, Qadimgi Xorazm, Qadimgi Baqtriya davlatlari. Siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayot, davlatchilik tizimi. Davlatlar o'rtasidagi umumiylik va o'zaro mutanosiblik. O'zbekiston hududlarida qadimda tashkil topgan va rivojlangan shaharlar va shahar madaniyati. Afrosiyob, Qiziltepa, Uzunqir, Yerqo'rg'on yodgorliklaridagi shahar belgilari va xususiyatlari. Shaharlarning o'zbek davlatchiligining shakllanishidagi o'rni va ahamiyati. Ilk davlatlarning hududiy asoslari, "madaniy-xo'jalik" vohalari. Miloddan avvalgi birinchi ming yillik birinchi yarmidagi iqtisodiy hayot. Ijtimoiy munosabatlar. O'zbekiston hududlarida ilk davlatlarning shakllanishi va rivojlanish jarayoni bosqichlari.

**4-mavzu: Ahamoniylar hukmronligi davrida davlat boshqaruv tizimi.
O'zbekistonning antik davri davlatchiligi (miloddan avvalgi IV - II
asrlar).**

Ahamoniylar davlatining tashkil topishidagi tarixiy shart-sharoitlar. Eron ahamoniylari hukmdorining Vatanimiz hududlariga bosqinchilik yurishlari. To'maris va uning o'g'li Sparangiz boshchiligidagi kurash. Ularga qarshi kurash. Marg'iyonada Frada qo'zg'oloni. O'rta Osiyoda ahamoniylar hukmronligining o'rnatilishi. Boshqaruv va soliq tizimi. Xorazmning ahamoniylar ta'siridan qutilib mustaqil davlatga aylanishi. O'rta Osiyoda ahamoniylar davlati boshqaruv tizimi, qo'shin, soliqlar, majburiyatlar, Hududiy bo'linish, markaziy boshqaruv organlari va boshqalar.

Mil. av. 329 yilda Makedoniyalik Iskandarning O'rta Osiyoga yurishlari. O'rta Osiyo xalqlarining yunon - makedoniyalik bosqinchilariga qarshi qahramonona kurashlari. Spitamen qo'zg'oloni. Iskandarning Hindistonga yurishi. Iskandar vafotidan so'ng saltanatining parchalanib ketishi.

Salavkiylar davlatining vujudga kelishi. Hududi va aholisining etnik tarkibi. O'rta Osiyo salavkiylar davlati tarkibida. Salavkiylar davlatida boshqarish tizimi. Sharqiy viloyatlarning salavkiylar davlati iqtisodiyotida tutgan o'rni. Salavka, Antiox I. Salavkiylar va ko'chmanchi aholi. Salavkaning Hindistonga yurishlari, mag'lubiyati va oqibatlari, Antiox I ning pul siyosati. Sharqiy viloyatning mustaqillikka intilishi.

Yunon - Baqtriya davlatining tashkil topishi. Uning hududlari, aholisining etnik

tarkibi, tabiati va iqlimi. Baqtriya yozma manbalarda "1000 shaharli o'lka". Shahar me'morchiligi. Dehqonchilik, hunarmandchilikning taraqqiyoti. Kulolsozlik, zargarlik. Ellin va mahalliy madaniy an'analarning o'zaro ta'siri. Davlatning ichki va tashqi siyosati. Tovar – po'l munosabatlari. Yunon – Baqtriya davlatining inqirozga yuz tutishi. Yunon -Baqtriya madaniyati: yozuv, adabiyot, san'at, diniy e'tiqodlar. Miloddan avvalgi 140-130 yillarda Yunon-Baqtriya davlatining yuechji qabilalari tomonidan bosib olinishi va qulatilishi.

5-mavzu: Qang', Dovon, Xorazm hamda Kushon davlatlarining shakllanishi va davlatchilik tizimi.

Qang' davlatining shakllanishi va hududlari. millodan avvalgi II - milodiy I asrlarda Qang' davlati hududlari. Qang' davlatining ma'muriy-hududiy bo'linishi. Aholining mashg'ulotlari, iqtisodiy taraqqiyot. Qang' davlati taraqqiyotida Buyuk Ipak yo'lining ahamiyati.

Dovon (Farg'ona) davlatining o'zbek davlatchiligi tarixidagi o'ziga hos o'rni hamda siyosiy, iqtisodiy ahvoli. Dovon-Xitoy urushlari. Dovon davlatining Xitoy, Hindiston va boshqa sharq mamlakatlari bilan iqtisodiy va madaniy aloqalardagi tutgan o'rni. Miloddan avvalgi IV-III asrlarda Xorazm davlatchilik tizimining takomillashtirilishi. Jonbosqala, Tuproqqala.

Qang', Xorazm, Dovon davlatlarida mavjud davlatchilik tizimi, xo'jalik hayotining taraqqiy etib borishi va uning o'zbek davlatchiligi taraqqiyotidagi o'rni.

Yuechji qabilalarining Baqtriyaga kelib joylashuvi. Yue - echji qabilalarining 5 hokimlik: Shuanmi, Guyshuan, Xise, Xyumi, Dumi -o'rtasida taqsimlanish. Guyshuan (Kushan) hokimi Kadfizning Kushon podsholigiga asos solishi. Kushon podsholigining Afg'oniston, g'arbiy Pokiston, Hindiston hisobiga kengayishi. Kadfiz islohotlari. Kanishka davrida Kushon — Baqtriya tilining davlat tili sifatida qabul qilinishi. Diniy va boshqa Navro'z marosimi. Shaharlar qurilishi. Yirik sun'iy sug'orish inshootlarining barpo qilinishi. Dehqonchilik, hunarmandchilik, shahar me'morchiligi, haykaltarashlik san'ati. Tovar - pul munosabatlari. Ichki va tashqi savdo.

Diniy e'tiqodlar. O'rta Osiyoda buddaviylik dinining tarqalishi. Kushonlar san'ati: devordagi rasmlar, monumental haykaltaroshlik, haykalchalar. Qo'shni mamlakatlar bilan savdo va madaniy aloqalar. Jahon madaniyati taraqqiyotida Kushon davri madaniyatining tutgan o'rni. Kushon podsholigi inqrozi, uning sabablari.

6-mavzu: O'zbekistonda ilk o'rta asrlar davlatchiligi tarixi (IV-VIII asrlar).

Mavzuning tarixshunosligi. Xioniylar, Kidariylar, Afrig'iylar, Eftalitlar.

Eftalitlarning O'rta Osiyoga yurishi. O'rta Osiyoda Eftalitlar davlatining tashkil topishi. Eftalitlar davlati hududlari, aholisining etnik tarkibi. Ijtimoiy – iqtisodiy hayotdagi o'zgarishlar. Yerga egalik munosabatlarining shakllanishi. Mazdak qo'zg'oloni. Yangi sun'iy sug'orish inshootlarining barpo qilinishi. "Dehqon" qarorgohlari, ular atrofida yangi shaharlarning paydo bo'lishi. Dehqonchilik va hunarmandchilik. Ichki va tashqi savdo. Pul munosabatlari. Me'morchilik, tasviriy san'at. Jartepa, Bolaliktepa rasmlari. Diniy e'tiqodlar, an'analar.

Mavzuning tarixshunosligi. Turk xaqonligining tashkil topishi. Turklarning g'arbga yurishlari. Sosoniylar bilan Turklar ittifoqi. Eftalitlar va turklarning to'qnashuvi. Eftalitlar mag'lubiyati. O'rta Osiyoning Turk xaqonligi tasarrufiga o'tishi. Turk - Eron munosabatlarining keskinlashuvi. Vizantiya bilan diplomatik munosabatlar. Turk xaqonligining hududlari, aholisi etnik tarkibi. Mamlakatni boshqarish usuli. Xaqon - davlat boshlig'i. Lavozimlar, mustaqil hokimliklar. Turk xaqonligining g'arbiy va sharqiy qismlarga bo'linib ketishi. Obruy qo'zg'oloni va uning bostirilishi. Budunlar, qora budunlar, beklar, hunarmandlar. savdogarlar. Aholining asosiy mashg'uloti: dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik. Ichki va tashqi savdo. Karvon savdosi. "Buyuk ipak yo'lida" yangi yo'llar va yangi imkoniyatlar. Shaharlar. Qishloqlarda "ko'shk", "qasr", "qo'rg'on", "qo'rg'oncha"larning qad ko'tarishi. Me'morchilik, tasviriy san'at. Xorazm, So'g'd, Toxariston yozuvlari. Turk, Enasoy-Urxun yozuvlari. Oltoy yodnomasi va kultakin bitiklari. Diniy qarashlar; Zardushtiylilik, budda, nasora, moniy va qam (shomonlik). Turk xaqonligining inqirozga yuz

Arab halifaligining tashkil topishi va Movarounnahr yerlarining arab bosqinchilari tomonidan istilo qilinishi. Arabistonyarim orolida Arab halifaligining tashkil topishi. Arablarning qo'shni hududlarga tajovuzkorlik yurishlari. O'rta Osiyoning arablar tomonidan istilo qilinishining ikki davri.

Tohiriylar davlatining paydo bo'lishi, Davlat boshqaruvi. Soliq siyosati. Xalq axvolining og'irlashuvi. Foziyalar harakati. (IX asr 60 yillari) Safforiylar davlatining tashkil topishi. Mavzu tarixshunosligi.

7-mavzu. IX – XII asrlarda O'zbek davlatchligi tarixi.

Movarounnahrda mustamlakachilik zulmiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan Rofe ibn Lays boshchiligidagi 806 yil qo'zg'oloni. Movarounnahrda somoniylarning siyosiy hayotga kirib kelishi. Nasr Somoniyning Movarounnahrni barcha viloyatlarini birlashtirish uchun ko'rgan tadbirlari. Ismoilning Buxoroga noib etib tayinlanishi. Uning mustaqil siyosat yuritishi. Ismoil Somoniy - yirik davlat arbobi. Uning davlatni boshqarish va harbiy sohadagi islohotlari. Ismoil Somoniyning ko'chmanchilar ustiga qarshi yurishlari. Somoniylar davlatining

markaziy va viloyat boshqarmalari. Somoniylar davlatida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayot. Qishloq ho'jaligi, yer egaligi, hunarmandchilik, konchilikning rivojlanishi. Ichki va tashqi savdo. Pul muomalasi. Ichki ziddiyatlar taxt uchun o'zaro kurashlar. Somoniylar davlatining zaiflashuvi va inqirozi.

Mavzuning tarixshunosligi. Yettisuv va Qashg'arda Qoraxoniylar davlatining tashkil topishidagi tarixiy shart-sharoitlar. Qarluqlar, jigilar (chigil), yag'molar, tuxsi va arg'ullarning ijtimoiy va iqtisodiy hayoti. X asrda bu qabilalarning o'troq dehqonchilikka o'tishi. Yettisuv va Qashg'ar qabilalarining Abdulkarim (955-956 yillarda vafot etgan) ismi bilan mashxur bo'lgan Satuk tomonidan birlashtirilishi. Qoraxoniylarning Movarounnahrda hujumi. Xorazm davlati. Qoraxoniylar va g'aznaviylar o'rtasidagi munosabatlar. Qoraxoniylar hukmronligi davrida Movarounnahrdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayot. Markazlashtirilgan davlat tizimining yemirilishi. Udel tizimi asosida mamlakatni boshqaruv. Soliqlar, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, savdo. Qoraxoniylar davlatining ikki mustaqil davlatga ajralishi. Qoraxoniylar va Saljuqiylar o'rtasida munosabatlar.

G'aznada mustaqil hokimlik o'rnatish uchun harakat. Alptagin-G'azna hukmdori. (962 i.) Sobuqtagin hukmronligi (977-997 i). Maxmud G'aznaviy (998-1030 i.) g'aznaviylar davlatining asoschisi. Maxmudning Qoraxoniylar bilan munosabati. Maxmud G'aznaviy va Saljuqiylar. g'azovot shiori ostida shimoliy Hindistonga yurishlar. Sulton Ma'sud hukmronligi.

G'aznaviylar va Saljuqiylar o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashuvi. Dandanakon (1040 i.) yonidagi jang. Sulton Ma'sud qo'shinining yengilishi g'aznaviylar davlatining inqirozi. Saljuqiylar harakatining vujudga kelishi. Saljuqiylar va g'aznaviylar munosabatlari.

8-mavzu. Xorazmshoh davlatchligi tarixi. O'rta Osiyoda Mo'g'ullar boshqaruvining o'rnatilishi.

"Xorazmshoh" unvonining tiklanishi. Xorazm mustaqilligi uchun kurash. Alovuddin Otsiz (1127-1156) moxir diplomat, g'ayratli lashkarboshi. Elarslon (1156-1172) va Alovuddin Takash (1172-1200) hukmronligi davrida Xorazmning kengayishi. Mamlakatda iqtisodiy yuksalish, shaharlarning gullab-yashnashi. Urganchning xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan shaharga aylanishi.

Mo'g'ul davlatining tashkil topishi. CHingizxon va Xorazmshoh davlatining diplomatik munosabatlari. Movarounnahrda mo'g'ul bosqinining amalga oshirilishi jarayonlari. Jaloliddin Manguberdi jasorati. Mo'g'ullar istilosidan keyingi siyosiy vaziyat. Chig'atoy ulusi davridagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, xo'jalik ahvol. XIII asrning ikkinchi yarmi va XIV asrning birinchi yarmidagi madaniy hayot.

9-mavzu. Amir Temur va temuriylar davrida davlatchilik taraqqiyoti.

Amir Temur tomonidan Movarounnahrda marakazlashgan davlatning tashkil etilishi va ayni vaqtda Markaziy Osiyo, Old Osiyo va Yaqin Sharq, Kichik Osiyo va Yevropaning bir qismini o'z ichiga olgan buyuk salatanatga asos solinishi, davlatchilik an'analarining isloh qilinishi va takomillashtirilishi natijasida o'zbek davlatchiligi taraqqiyotida yangi bosqichga ko'tarilishi bilan xususiyatlanadi. XV asr boshiga kelib Movarounnahrda yuzaga kelgan siyosiy tarqoqlik XVI asr boshlariga kelib temuriylar davlatining inqirozi bilan yakun topishi. Iqtisodiy jihatdan mazkur davrda yer va yerga egalik munosabatlarining takomillashtirilishi, sug'orish tarmoqlarining tiklanishi va barpo etilishi, yangi yerlarning o'zlashtirilishi va dehqonchilik maydonlarining kengaytirilishi, iqtisodiy sohadagi davlat siyosatining izga solinishi, soliqlarning takomillashtirilishi, hunarmandchilik va me'morchilikning taraqqiy etishi, Buyuk Ipak yo'li bo'ylab Xitoy, Hindiston, Mo'g'uliston, Sibir xalqlari, Volgabo'yi xalqlari, Sharqiy Yevropa, Markaziy Yevropa, Bolqon mamlakatlari, Kichik Osiyo, Old Osiyo, Yaqin Sharq, Afg'oniston, Eron, Kavkaz xalqlari bilan savdo aloqalarining kengayib borishi kabilar bilan xususiyatlanadi. Ma'muriy boshqaruv tizimining harbiy siyosiy xarakteri. Amir Temur va temuriylar davrida asosiy soliq turlari. Amir Temur davlatida xuquqiy munosabatlar. Jamiyat hayotida qonun ustuvorligi. "Temur tuzuklari" va uning davlatchilik ishlaridagi ahamiyati. Amir Temur vafotidan so'ng hukmronlik qilgan temuriy shahzodalarning davlat boshqaruvi va siyosiy parokandalikning kuchayishi. Temuriylar davlatining inqirozga uchrashi. O'zbekiston mustaqilligi yillarida Amir Temur faoliyatining haqqoniy, xolis va munosib e'tirof etilishi va uning ahamiyati.

10-mavzu: XVI- XIX asrning ikkinchi yarmida o'zbek davlatchiligi tarixi.

Dashti Qipchoqda XV asr oxiri - XVI asr boshlarida yuz bergan siyosiy voqealar. Shayboniylar davlatining tashkil topishi. Shayboniylar va temuriylar o'rtasidagi siyosiy munosabatlar va harbiy to'qnashuvlar. Shayboniylarning Movarounnahrni qo'lga kiritishi va siyosiy hukmronlikning o'rnatishi. Shayboniylar sulolasining davlat tepasiga kelishi. Shayboniylar davlati boshqaruv tizimi va xususiyatlari. Markaziy va mahalliy boshqaruv hokimiyati. Shayboniylar davlatida ijtimoiy munosabatlar. Ijtimoiy tabaqalar vakillarining jamiyat hayotida tutgan o'mi.

Davlat boshqaruv ishlarida harbiylarning mavqei. Shayboniylar davlatida harbiy ahvol. Abdullaxon tomonidan amalga oshirilgan islohotlar va qurol-yarog'larning takomillashtirilishi.

Shayboniylar davlatida iqtisodiy tizim, ichki va tashqi savdo. Qishloq xo'jaligi. Hunarmandchilik. Abdullaxondan so'ng shayboniylarning inqirozga yuz tutishi.

Ashtarxoniylar (Joniylar) sulolasi hukmronligining oʻrnatilishi. Ashtarxoniylar sulolasi hukmronligi yillarida Buxoro xonligida markaziy boshqaruv. Mahalliy hokimiyat egalarining mustaqillikka intilishi va markaziy hokimiyatning zaiflashuvi. Ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligida ijtimoiy tuzum, huquqiy munosabatlar, harbiy ahvol. Markaziy hokimiyatning zaiflashuvi va Ashtarxoniylarning inqirozga yuz tutishi.

Xiva xonligining tashkil topishi. Xonlikning maʼmuriy - xududiy boʻlinishi. Xiva xonligida ijtimoiy tuzum. Xonlikda harbiy ahvol va sud ishlari, xuquqiy munosabatlar. Xiva xonligining iqtisodiy hayoti. Xonlikda davlat boshqaruv tartiblari.

Buxoroda mangʻit amirlari tomonidan hokimiyatning egallanishi. Davlatda ichki kurashlarning kuchayishi. Buxoro amirlarining davlat yaxlitligini saqlab qolish uchun olib borgan kurashlari. Xiva va Qoʻqon xonlari bilan munosabatlari. Buxoro amirligida davlat boshqaruv tartiblari. Maʼmuriy hududiy boʻlinishi. Huquqiy munosabatlar. XIX asr oʻrtalarida Rossiya imperiyasi bilan munosabatlarning keskilashuvi va Buxoro amirligining Rossiya imperiyasi tomonidan magʻlubiyatga uchratilishi.

Qoʻqon xonligining tashkil topishi. Xonlikning maʼmuriy boʻlinishi. Ijtimoiy tuzum. Xonlikda harbiy sohaning ahvoli va davlat boshqaruvida harbiylar mavqeining oshib borishi. Harbiy, maʼmuriy, diniy unvon va mansablar va ularning davlat boshqaruvidagi oʻrni.

11-mavzu: Rossiya imperiyasi tomonidan Oʻrta Osiyo mustamlakaga aylantirilishi va mustamlakachilik davlat boshqaruvining oʻrnatilishi.

Oʻrta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan mustamlakaga aylantirilishi, Turkiston general-gubematorligining tashkil etilishi, mustamlaka boshqaruv usulining joriy etilishi. Buxoro amirligi, Xiva xonligining qaram davlatlarga aylantirilishi va Qoʻqon xonligining tugatilishi. Oʻzbek davlatchiligidagi tarixiy anʼanalarning inqirozga yuz tutishi. XIX asr ikkinchi yarmidan 1917 yil mart oyigacha boʻlgan davrni oʻz ichiga olib, siyosiy jihatdan bu davr iqtisodiy, siyosiy va gʻarbiy jihatdan jahon taraqqiyotida orqada qolgan va oʻzaro kurashlar girdobiga tushib qolgan oʻzbek xonliklarining xudi shunday holatda jahon taraqqiyotidan ancha ortda qolib ketayotgan va rivojlangan davlatlar orasida oʻz oʻmini topa olmayotgan Rossiya imperiyasi tomonidan mustamlakaga aylantirilishi, Buxoro amirligi, Xiva xonligining qaram davlatlarga aylantirilishi va Qoʻqon xonligining tugatilishi, Turkiston general-gubematorligining tashkil etilishi va mustamlaka boshqaruv usulining joriy etilishi, oʻzbek davlatchiligidagi tarixiy anʼanalarning inqirozga yuz tutishi bilan xususiyatlanadi. Iqtisodiy jihatdan bu davr anʼanaviy ishlab chiqarish usullarining inqirozga yuz tutishi, yevropacha ishlab chiqarish elementlarining kirib kelishi, mustamlaka manfaatiga xizmat qiluvchi sanoat korxonalarining shakllantirilishi, temir

yo'l qurilishi, banklar va turli iqtisodiy sohadagi tashkilotlar faoliyatining yo'lga qo'yilishi bilan xususiyatlanadi.

O'rta Osiyo xonliklarining chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi va mustamlakaga aylantirilishi Turkiston general-gubematorligining tashkil etilishi. General gubematorlik boshqaruv usullari va mustamlaka idora boshqaruvining xususiyatlari. Buxoro va Xiva xonliklarining qaram davlatlarga aylantirilishi, uning oqibatlari va milliy davlatchilik boshqaruvi an'alariga ta'siri. Milliy davlatchilikni tiklash uchun olib burilgan milliy - ozodlik harakatlari, ularning natijalari va tarixiy ahamiyati.

12-mavzu: O'rta Osiyoda sovet hokimiyati davlat boshqaruvining o'rnatilishi. Turkiston muhtoriyatining tashkil topishi va uning faoliyati.

Rossiyadagi 1917 yildagi fevral – burjua demokratik inqilobining g'alabasi va uning Turkiston o'kasiga tasiri, Oktabr to'ntarishlari, Siyosiy uyg'onish va o'lkadagi partiyalar faoliyati.

O'lka musulmonlarining IV favqulodda s'ezdining o'tkazilishi. 1917 yil 26 noyabrda Qo'qon shahrida Turkiston muhtoriyatining tashkil topishi va uning faoliyati. Turkiston muhtoriyatining qizil askarlar tomonidan tor-mor qilinishi. Sovetlar "andozasi" asosida Turkiston avtonom respublikasining tashkil etilishi. Turkiston muhtoriyatining qizil askarlar tomonidan tor-mor qilinishi. Sovetlar "andozasi" asosida Turkiston avtonom respublikasining tashkil etilishi.

Turkistonda Istiqlolchilik harakati av uning o'ziga xos xususiyatlari. Katta Ergash va Madaminbeklar faoliyati. "Farg'ona Muvaqqat Muxtoriyati hukumat" va uning faoliyati.

13-mavzu: O'rta Osiyoda sovet respublikalarining tashkil etilishi.

Yosh Buxoroliklar va yosh Xivaliklar faoliyati. Bol'sheviklarning "sharqqa doir reja"lari. Xiva xonligi va Buxoro amirli faoliyatining tugatilishgi va XXSR va BXSRLning tashkil topishi. Milliy rahbar kadrlar faoliyati. Turkiston ASSRLning tashkil etilishi. "Harbiy kommunizm siyosati va uning mohiyati". Turkiston o'lkasida sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat.

Turkistonda 20-yillar boshlaridagi siyosiy vaziyat. Yangi iqtisodiy siyosat va uning ziddiyatlari. Istiqlolchilik harakatining kuchayishi. Buxoro va Xorazm respublikalarida qurolli muxolifat kurashlari.

14-mavzu: O'rta Osiyoda milliy - hududiy chegaralanish o'tkazilishi. O'zbekiston SSRning tashkil topishi va davlat boshqaruvida

o'zgarishlar.

Milliy hududiy chegaralanishning amalga oshirilishi va bo'lib yuborilgan etnoslar muammosi. O'rta Osiyo xalqlarining "milliy davlatchiligi" tashkil etildi deya baholanishi. O'zbekiston SSRning tashkil topishi

1925 yil yanvar - 1991 yil 31 avgustgacha davom etgan bu davr siyosiy jihatdan O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasida boshqaruv va iqtisodning sotsialistik shakliga o'tilishi, ichki va tashqi siyosatning markazlashtirilgan holda SSSR (Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqi) rahbariyati tomonidan amalga oshirilishi, markazga itoatda tutub turuvchi milliy siyosatning amalga oshirilishi, milliy davlatlarning suvereniteti va mustaqil boshqaruv faoliyatining cheklanganligi. Iqtisodiy jihatdan bu davrda sotsialistik mulkchilik shakllarining iqtisodiy va ijtimoiy hayotga to'liq tatbiq etilishi, barcha mulkning davlat tasarrufiga o'tkazilishi, ishlab chiqarishda davlat monopoliyasi (yakka hukmronligi) ning tashkil etilishi, ittifoqdosh respublikalarda iqtisodning notekis rivojlanishi, jamoaviy ishlab chiqarish jamoa xo'jaliklari (kolxozlar) va davlat xo'jaliklari (sovxozlar) ning tashkil etilishi, yer va uning tuzilishi, tabiiy va iqlim sharoitlari bilan hisoblashmagan holda ekin maydonlarining kengaytirilishi va ekologik holatlarning buzilishi, qishloq xo'jaligidagi samaradorlikning kamayishi. XX asrning 80-yillari o'rtalari - 90-yillari boshlarida sobiq Ittifoq markaziy hokimiyatidagi inqiroz holatlarining yuzaga kelishi, milliy davlatlarning o'z mustaqilligi va suverenitetini qaytadan tiklashi uchun sharoitlarning yuzaga kelishi, O'zbekiston SSRda mustaqil davlatchilik xuquqiy asoslarining yaratilishi hamda Prezidentlik boshqaruvining joriy etilishi.

15-mavzu: Mustaqil O'zbekiston - davlatchiligimiz tarixidagi yangi bosqich – Mustaqil O'zbekiston davlatchiligi tarixi.

XX asrning 80-yillari o'rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotdagi qinqirozli holat. "Paxta ishi" va "O'zbek ishi" nomli kompaniyalar. Aholi turmush tarzining pasayishi. Farg'ona voqealari. Milliy manfaatlarni o'sib borishi, I.A.Karimov - O'zbekistonning birinchi prezidenti. Mustaqillik deklaratsiyasi va uning tarixiy ahamiyati. 1991 yil avgust voqealari. GKCHP. Sovet davlatining tanazzulga yuz tutishi.

Mustaqillik - o'zbek xalqining azaliy orzusi. Mustaqillik arofasida ijtimoiy-siyosiy jarayonlar. Mustaqillikning e'lon qilinishi. Milliy davlatchilikning shakllanishi va rivojlanishi. Mustaqillikning dastlabki yillarida davlat suverenitetini mustahkamlanib borishi. Birinchi prezident I.A.Karimov tomonida davlat mustaqilligini mustahkamlash yo'lida farmonlar va siyosiy hujjatlarni imzolanishi. 1991-yil 29-dekabrda o'tkazilgan referendum.

O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinish Davlat ramzlarining qabul qilinishi.

Mahalliy davlat boshqaruvi tizimi. Mahalliy davlat hokimiyati tizimida tub o'zgarishlar. O'zini-o'zi boshqarish organlarining rivijlanishi. O'zbekistonda hokimiyatlar bo'linish prinsipi. Ko'ppartiyaviylik tizimi va uning ahamiyati. Boshqaruvda yangi usullarning qaror topishi. O'zbekistonda parlament tizimiva uning faoliyat. Sud tizimidagi o'zgarishlar. O'zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi. Oliy majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili instituti faoliyati. Intellektual mulk agantligining tashkil etilishi. Mualliflik huquqi tarixi va mustaqilik davrida Mualliflarning huquqlarini himoyasidagi o'zgarishlar. O'zbekiston respublikasi mahalla va oilani qo'llab quvvatlash institutining tashkil etilishi.

Mustaqillik yillarida Qoraqalpog'iston respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida amalga oshirilgan islohotlar. Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi sohasidagi o'zgarishlar. Qoraqalpog'iston oliy ta'lim tizimi va xalq talim tizimidagi o'zgarishlar. Qoraqalpog'iston respublikasida ekologik vaziyat. Orol fojiasi. Ekologik holatni yaxshilash borasidagi davlat siyosati.

2017-2021 yillarda O'zbekiston respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasining ishlab chiqilishi, hayotga joriy etilishi va uning ahamiyati. Davlat va jamiy qurulishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlar. Qonun ustuvorligini taminlash va sud huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlar. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlar. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlar. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni taminlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosatsohasidagi ustuvor yo'nalishlar

III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlarida talabalar Tarix fanida innovasiyalar: texnologiyalar, modellar va metodlar fanidan ma'ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, seminarlar mavzulari bo'yicha tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'shimcha adabiyotlar va tarixiy manbalar bilan tanishish orqali qo'shimcha bilim va xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Natijada, ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. O'zbek davlatchiligi tarixi fani predmeti, maqsad va vazifasi.
2. Davlatchilik nazariyalari va davlatlar shakllanish asoslari
3. O'zbek davlatchiligining shakllanishi va ilk davlatchilik tarixi. Qadimgi Baqtriya, Xorazm va Sug'diyona davlatlari.

4. Ahamoniylar hukmronligi davrida davlat boshqaruv tizimi. O'zbekistonning antik davri davlatchiligi (miloddan avvalgi IV - II asrlar).
5. Qang', Dovon, Xorazm hamda Kushon davlatlarining shakllanishi va davlatchlik tizimi.
6. O'zbekistonda ilk o'rta asrlar davlatchiligi tarixi (IV-VIII asrlar).
7. IX – XII asrlarda O'zbek davlatchiligi tarixi.
8. Xorazmshox davlatchiligi tarixi. O'rta Osiyoda Mo'g'ullar boshqaruvining o'rnatilishi.
9. Amir Temur va temuriylar davrida davlatchilik taraqqiyoti.
10. XVI- XIX asrning ikkinchi yarmida o'zbek davlatchiligi tarixi.
11. Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyo mustamlakaga aylantirilishi va mustamlakachilik davlat boshqaruvining o'rnatilishi.
12. O'rta Osiyoda sovet hokimiyati davlat boshqaruvining o'rnatilishi. Turkiston muhtoriyatining tashkil topishi va uning faoliyati.
13. O'rta Osiyoda sovet respublikalarining tashkil etilishi.
14. O'rta Osiyoda milliy - hududiy chegaralanish o'tkazilishi. O'zbekiston SSRning tashkil topishi va davlat boshqaruvida o'zgarishlar.
15. Mustaqil O'zbekiston - davlatchiligimiz tarixidagi yangi bosqich – Mustaqil O'zbekiston davlatchiligi tarixi.

Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'limni baholash – bu talabalarining jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, hulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. O'zbek davlatchiligi tarixi fani predmeti, maqsad va vazifasi.
2. Davlatchilik nazariyalari va davlatlar shakllanish asoslari
3. O'zbek davlatchiligining shakllanishi va dastlabki taraqqiyot bosqichlari. (miloddan avvalgi II mingyillik o'rtalari va ikkinchi yarmi).
4. O'zbekistonda ilk davlatchilik tarixi. Qadimgi Baqtriya, Xorazm va Sug'diyona davlatlari. (miloddan avvalgi I ming yillik birinchi yarmi).
5. Ahamoniylar hukmronligi davrida davlat boshqaruv tizimi.
6. O'zbekistonning antik davlatchiligi (miloddan avvalgi IV - II asrlar).
7. Qang', Dovon va Xorazm davlatlari.
8. Kushon davlatining shakllanishi va davlatchlik tizimi.
9. O'zbekistonda ilk o'rta asrlar davlatchiligi tarixi (IV-VII asrlar).

	10. Kidariylar, xioniylar va efitlilarning siyosiy hamda etnik tarixi. 11. Turkiy xoqonlik darida Oʻrta Osiyo. 12. Arab xalifaligining davlat boshqaruvi, Oʻrta Osiyoga hududida oʻrnatilgan boshqaruv tartibi 13. Tohiriylar davlati davlatchligi. 14. Safforiylar davlati davlatchligi. 1. Somoniylar hukmronligi. Markazlashgan davlatning tashkil topishi. 2. Qoraxoniylar hukmronligi davrida Movarounnahr. 3. Gʻaznaviylar davlati. Mahmud Gʻaznaviy. 15. Saljuqiylar davlati. 16. Xorazmshohlar davri davlatchligi. 17. Oʻrta Osiyoda Moʻgʻullar boshqaruvi oʻrnatilishi. 18. Amir Temur va temuriylar davrida davlatchilik taraqqiyoti. 19. Shayboniylar davlati. Siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot 20. Ashtarxoniylar sulolasi davrida Oʻrta Osiyo. 21. Buxoro amirligi. Mangʻitlar sulolasi. 22. Qoʻqon xonligi. Minglar sulolasi. 23. Xiva xonligi. Inoqlar va qoʻngʻrotlar. 24. Soʻnggi oʻrta asrlarda qoraqalpoqlar (siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot). 25. XVIII - XIX asrning ikkinchi yarmida oʻzbek davlatchiligi tarixi. 26. Rossiya imperiyasi tomonidan Oʻrta Osiyo mustamlakaga aylantirilishi va mustamlakachilik davlat boshqaruvining oʻrnatilishi. 27. Oʻrta Osiyoda sovet hokimiyati davlat boshqaruvining oʻrnatilishi. Turkiston muhtoriyat – milliy demokratik davlatning dastlabki tajribasi. 28. Oʻrta Osiyoda sovet respublikalarining tashkil etilishi. 29. Oʻrta Osiyoda milliy - hududiy chegaralanish oʻtkazilishi. Oʻzbekiston SSRning tashkil topishi va davlat boshqaruvida oʻzgarishlar. 30. Mustaqil Oʻzbekiston - davlatchiligimiz tarixidagi yangi bosqich – Mustaqil Oʻzbekiston davlatchiligi tarixi.
3.	VII. Taʼlim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni oʻzlashtirish natijasida talaba: • Oʻzbek davlatchiligi tarixi fanidan olingan nazariy bilimlarni amaliy qoʻllay olishlari; • tarixiy taxlil maʼlumotlarni jamlash va klassifikatsiyalashni bilishi; • maʼlumotlarni davrlashtirish, qiyosiy va ilmiy tahliliy taqqoslash, solishtirish olingan xulosalarni ilmiy ravishda bayon eta olishin bilishi;

	• tarixni o'rganishga tarixiylik va obvektivlik hamda ilmiylik nuqtai nazaridan yondashib milliy istiqloq mafkurasi tamoyillarini chuqur bilishi va ularni anglagan xolda xulosalash malakasiga ega bo'lish kerak.
4.	VIII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va hioya qilish uchun loyihalar
5.	IX. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha og'zaki savol javob, yozma ish yoki test topshirishi zarur.
6.	X. Asosiy adabiyotlar: 1. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Тошкент: Шарқ, 2000. 2. Q.Rajabov, F.Amonova, B.Qandov. O'zbekiston tarixi, "Ochun", Toshkent. 2024. 3. Ражабов Қ. Туркистон мухторияти тарихи. - Тошкент. "Фан", 2023. 4. Normatov O.M. "O'zbek davlatchlik tarixi", O'quv qo'llanma "Nazokathon ziyo print" T.,-2023 y. XI. Qo'shimcha adabiyotlar 5. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. -T. O'zbekiston. 2023. (O'zbekiston Respublikasi Referendumida 2023-yil 30 aprel kuni o'tkazilgan umumxalq ovoz berishi orqali yangi tahrirdagi qabul qilingan Konstitusiyasi) 6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022- 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. 7. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. - Тошкент: O'zbekiston, 2017. 8. Мирзиёев Ш. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. - Тошкент: O'zbekiston, 2018. 9. Мирзиёев Ш. Нияти улуг халқнинг иши ҳам улуг, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. - Тошкент: O'zbekiston, 2019. 10. Мирзиёев Ш. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. - Тошкент: O'zbekiston, 2020. 11. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган иккинчи нашри. - Тошкент: O'zbekiston, 2022.

12. Karimov I. O'zbekiston: milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. Toshkent: O'zbekiston, 1996.
13. Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: «Sharq», 1998.
14. Karimov I. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent: O'zbekiston, 2011.
15. Karimov I. Tarixiy xotira va inson omili – buyuk kelajagimiz garovidir / Xalq so'zi. 2012, 10 may.
16. Karimov I. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish - eng oliy saodatdir. Toshkent: O'zbekiston, 2015.
17. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Учинчи китоб. Мустақил Ўзбекистон тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2000.
18. Қ.Ражабов. Туркистон мухторияти вазирлари ҳамда Миллий мажлис аъзолари ҳаёти ва тақдири. –Тошкент: Bodomzor invest, 2021.
19. Норматов О. Ўрта Осиёда ўтказилган районлаштириш сиёсатининг Ўзбекистон ижтимоий-сиёсий ҳаётига таъсири. –Тошкент, “Тамaddon”. 2022.
20. Ражабов Қ., Қандов Б., Ражабова С. Ўзбекистон тарихининг муҳим саналари (Энг қадимги даврлардан бугунги кунгача). Тўлдирилган ва қайта ишланган олтинчи нашр. – Тошкент: “O'zbekiston”, 2015.
21. Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. Научный редактор: Р.Я.Раджапова. - Ташкент: “Шарқ”, 2000.
22. Турсунов Х.Т. Ўзбекистон Совет Социалистик Республикасининг барпо этилиши. - Тошкент: Ўзбекистон ССР ФА нашриёти, 1958.
23. Ўзбекистон тарихи (1917-1991-йиллар). 2та китоб. Масъул муҳаррирлар: Р.Абдуллаев, Қ.Ражабов, М.Раҳимов. Тошкент: Ўзбекистон, 2019.
24. Узбекистан в годы Великой Отечественной войны. - Ташкент: “Фан”, 1966.
25. Ўзбекистон ССР тарихи. Қадимги даврдан ҳозирги кунгача. - Т., 1974.
26. Ўзбекистон ССР тарихи. Тўрт томлик. Т. IV. Бош муҳаррир И.М.Мўминов. -Тошкент: “Фан”, 1971.
27. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Илмий муҳаррир М. Жўраев. - Тошкент: “Шарқ”, 2000.

Axborot manbalari

www.pedagog.uz (Respublika pedagogika talim muassasalari portali)
www.cspi.uz (Chirchiq davlat pedagogika universiteti web-sayti)
www.edu.uz (O'zbekiston Respublikasi ta'lim portali)
www.unilibrary.uz (Yagona elektron kutubxona axborot tizimi)
www.natlib.uz (A.Navoiy nomidagi O'z.MK)
www.ziynet.uz - Ziynet axborot-ta'lim resurslari portali

- | | |
|----|--|
| 7. | Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2024 yil “ 29 ” <i>avgust</i> dagi qarori |
|----|--|

	bilan tasdiqlangan
8.	Fan/modul uchun ma'sul: O.M. Normatov CHDPU, "O'zbekiston tarixi" kafedrası dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori,(PhD).
9.	Taqrizchilar: A.A. Yermetov – O'zMU, "O'zbekiston tarixi" kafedrası professor, t.f.d. Y.X. Gaffarov CHDPU, "O'zbekiston tarixi" kafedrası professori, tarix fanlari nomzodi,(PhD).